

**“Yangi Angren IES” AJ ning
yagona aksiyadori 3-2026 - son QARORI**

Toshkent sh.

2026-yil “5” avgust

“Yangi Angren IES” AJning jami chiqarilgan va joylashtirilgan aksiyalari

37 732 650 donani tashkil etadi, jumladan:

- 37 579 750 dona oddiy;

- 152 900 dona imtiyozli aksiyalar.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligining 2023-yil 23-noyabrdagi 02/09-5-17/685-sonli ishonchnomsiga muvofiq “Issiqlik elektr stansiyalari” AJ Boshqaruv raisi B.Jurayevga yagona aksiyador nomidan ovoz berish huquqi berilgan.

Ushbu qarorda O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunining 58 va 59-moddalariga asosan quyidagi masalalar ko‘rib chiqildi:

KUN TARTIBI:

1. “Yangi Angren IES” AJning 2025-yil yakunlari bo‘yicha moliyaviy xo‘jalik faoliyati natijalari yuzasidan jamiyat ijroiya organining hisobotini tinglash.

2. “Yangi Angren IES” AJning 2025-yil yakuni bo‘yicha faoliyati va moliyaviy hisobotlarini MHXSga muvofiqligini tekshirish va “Yangi Angren IES” AJning 2025-yilning korporativ faoliyatini baholash yuzasidan hisobotlarni ko‘rib chiqish.

3. “Yangi Angren IES” AJning 2025-yil yakuni bo‘yicha buxgalteriya balansi va moliyaviy natijalari - foyda va zararlarini ko‘rib chiqish.

4. “Yangi Angren IES” AJ bosh direktori T.S.Rajabov bilan tuzilgan mehnat shartnomasini uzaytirish masalasi to‘g‘risida.

5. Imtiyozli aksiya egalariga dividend to‘lash masalasini ko‘rib chiqish.

6. “Yangi Angren IES” AJning affillangan shaxslar ro‘yxatini va ular bilan kelgusida (2026-2027-yillar davomida) tuzilishi mumkin bo‘lgan bitimlarni ma’qullash.

Kun tartibidagi birinchi masala yuzasidan:

“Yangi Angren IES” AJ ijroiya organining 2025-yil yakuni bo‘yicha Biznes reja ko‘rsatkichlarining bajarilishi bo‘yicha Jamiyat ijroiya organi tomonidan hisobot taqdim etildi.

2025-yilda 5 247,5 mln kVt/s elektr energiyasi ishlab chiqildi, 152 164,0 Gkal issiqlik energiyasi iste’molchilarga yetkazib berildi. Elektr energiyasini ishlab chiqarish rejaga nisbatan 102,9% ni, issiqlik energiyasini yetkazib berish esa biznes rejaga nisbatan 92,2% ni tashkil qildi. Hisobot davrida ta’mirlash ishlariga 311,7 mlrd. so‘m sarflandi.

Yetkazib beriladigan elektr energiyasi uchun 440,65 gr/kVt.s. shartli yoqilg‘i birligi belgilangan bo‘lsa, haqiqatda ham 451,68 gr/kVt.s. ni tashkil qildi.

T/r	Ko'rsatkichlar	Shartli birligi	Biznes reja bo'yicha	Haqiqatda	Biznes rejaga nisbatan % da
1	Elektr energiya i/ch	Ming kVt/s	4 423 300,0	4 806 700,0	108,7
2	Issiqlik energiyasi yetkazish	Gkal.	58 000,0	90 900,0	156,7

Mahsulot sotishdan tushum 3 144,549 559 ming so'mni yoki rejaga nisbatan 91,6% ni (reja bo'yicha 3 431 182 142 ming so'm) tashkil qildi. Jamiyat 2025 yilni **630 236 043,0 ming so'm zarar bilan** yakunladi.

Jamiyatning debitorlik qarzlari 01.01.2026 yil holatiga 168 341 390 ming so'mni tashkil qildi. Qarzdorlik o'tgan yilning shu davriga nisbatan 63 288 359 ming so'mga oshgan. Muddati o'tgan debitorlik qarzlari 15 977 784 ming so'mni tashkil qildi.

Jamiyatning kreditorlik qarzlari 01.01.2026 yil holatiga 1 406 483 509 ming so'mni tashkil qildi. Qarzdorlik o'tgan yilning shu davriga nisbatan 484 855 520 ming so'mga oshgan. Muddati o'tgan kreditorlik qarzlari 540 184 ming so'mni tashkil qiladi.

Kun tartibidagi birinchi masala yuzasidan **aksiyador qaror qiladi:**

1. Jamiyatning 2025-yil yakuni bo'yicha yillik hisoboti ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Kun tartibidagi ikkinchi masala yuzasidan:

Yangi Angren IES" AJning 2025-yil yakuni bo'yicha faoliyati va moliyaviy hisobotlarini MHXSga muvofiqligini tekshirish va "Yangi Angren IES" AJning 2025 yilning korporativ faoliyatini baholash uchun eshop.uzex.uz elektron platformasida "Balans-Inform-audit" MCHJ tanlov asosida tanlangan.

"Balans-Inform-audit" MCHJ auditorlik tashkiloti tomonidan "Yangi Angren IES" AJning 2025-yil yakuni bo'yicha faoliyati va moliyaviy hisobotlarini MHXSga muvofiqligini tekshirish va "Yangi Angren IES" AJning 2025-yilning korporativ faoliyatini baholash yuzasidan tekshiruv o'tkazildi.

"Yangi Angren IES" AJning 2025-yil moliyaviy-xo'jalik faoliyati yakunlari to'g'risidagi moliyaviy hisoboti "Balans-Inform-audit" MCHJ auditorlik tashkiloti tomonidan 2026-yil 7-maydagi ishonchli xulosasi va shu auditorlik tashkilotining 2026-yil 7-maydagi 05/12-sonli korporativ faoliyatni baholash yuzasidan bergan 382 ball bilan "qoniqarli" deb topilgan hisoboti taqdim etildi.

Kun tartibidagi ikkinchi masala yuzasidan **aksiyador qaror qiladi:**

1. "Yangi Angren IES" AJning 2025-yil yakuni bo'yicha faoliyati va moliyaviy hisobotlarini MHXSga muvofiqligini tekshirish va Jamiyatning 2025 yil bo'yicha korporativ faoliyatini baholash yuzasidan "Balans-Inform-audit" MCHJ auditorlik tashkilotining bergan xulosalari ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. "Yangi Angren IES" AJ Ijroiya organining 2025-yil yakuni bo'yicha samaradorlikning muhim ko'rsatkichi (SMK) 102 foiz "qoniqarli" tashkil etganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. "Yangi Angren IES" AJ ijroiya organining hisobot davridagi ish faoliyati "qoniqarli" deb topilsin.

Kun tartibidagi uchinchi masala yuzasidan:

“Yangi Angren IES” AJning 2025-yil yakuniy moliyaviy-xo‘jalik faoliyati bo‘yicha hisoboti (buxgalteriya balansi va moliyaviy natijalari) ko‘rib chiqildi, jumladan:

Iqtisodiy-moliyaviy natijalar ko‘rsatkichlari:

“Yangi Angren IES” AJning 01.01.2026 yil holatiga taqdim etilgan buxgalteriya balansiga ko‘ra balans aktivlari 852 539 505,0 ming so‘m, sof aktivlar -1 428 832 547,0 ming so‘mni tashkil etgan.

Jamiyatning rezerv kapitali 394 972 448,0 ming so‘m bo‘lib, shundan zaxira fondi 11 606 481,0 ming so‘mni tashkil etgan.

“Yangi Angren IES” AJning 01.01.2026 yil holatiga debitor qarzdorlik 168 341 390 ming so‘m bo‘lib, shundan muddati o‘tgani 15 977 784 ming so‘m.

Joriy kreditorlik qarzdorlik esa 01.01.2026 yil holatiga 1 406 463 509 ming so‘m bo‘lib, shundan muddati o‘tgani 540 184 ming so‘m.

Jamiyat 2025 yilda sof tushumlar 3 144 549 559 ming so‘mni tashkil etgan. Bunda mahsulot tannarxi 3 391 717 340 ming so‘m bo‘ldi.

Shuningdek, davr xarajatlari 158 585 959 ming so‘m, shundan ma‘muriy xarajatlar 119 977 ming so‘mga yetgan. Jamiyat 2025 yilni 630 236 043,0 ming so‘m zarar bilan yakunladi. Bu 2024 yil yakuniga nisbatan 3,3 barobar ko‘p (jamiyat 2024 yilni 186 705 459,0 ming so‘m zarar bilan yakunlagan).

Kun tartibidagi uchinchi masala yuzasidan **aksiyador qaror qiladi:**

1. Jamiyatning 2025-yil yakuni bo‘yicha buxgalteriya balansi va foyda va zararlar hisob varag‘i tasdiqlansin.

Kun tartibidagi to‘rtinchi masala yuzasidan:

O‘zbekiston Respublikasi “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunning 75-moddasi va jamiyat ustavining 73 bandi 2) kichik bandiga asosan jamiyatning ijroiya organini tuzish, bosh direktorini saylash va uning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish jamiyat kuzatuv kengashi vakolatida ekanligini ta’kidlandi.

Jamiyat kuzatuv kengashining 2025-yil 14-iyuldagi majlisida Rajabov Tog‘mamat Saydullayevichni “Yangi-Angren IES” AJ bosh direktori etib tayinlangan.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligining 2026-yil 1-avgustdagi 02/9.2-17.1/443-sonli ko‘rsatmasiga muvofiq, Jamiyat bosh direktori Rajabov T.S. bilan tuzilgan mehnat shartnomasini uzaytirish masalasi yuzasidan, jamiyatning 2025-yil uchun biznes reja ko‘rsatkichlarini bajarmaganligi sababli jamiyat bosh direktori vakolatini tugatish, bosh direktor lavozimiga qonunchilikda belgilangan tartibda tanlov o‘tkazilib, tanlov natijalari bo‘yicha nomzod tasdiqlangunga qadar jamiyatning amaldagi bosh direktorini vaqtincha vazifasini bajaruvchi etib tayinlash taklif qilindi.

Kun tartibidagi to‘rtinchi masala yuzasidan **aksiyador qaror qiladi:**

1. Jamiyat bosh direktori T.S. Rajabov bilan tuzilgan mehnat shartnomasini uzaytirish masalasi yuzasidan, jamiyatning 2025-yil uchun biznes reja ko‘rsatkichlarini bajarmaganligi sababli jamiyat bosh direktori vakolatini tugatish, bosh direktor lavozimiga qonunchilikda belgilangan tartibda tanlov o‘tkazilib, tanlov natijalari bo‘yicha nomzod tasdiqlangunga qadar jamiyatning amaldagi bosh direktorini vaqtincha vazifasini bajaruvchi etib tayinlansin.

Kun tartibidagi beshinchi masala yuzasidan:

“Yangi Angren IES” AJ ustavining 63-bandini ikkinchi xatboshiga muvofiq Jamiyatning imtiyozli aksiyalari bo'yicha aksiyalar nominal qiymatining 25 % miqdorida dividendlar to'lanadi.

Ma'lumot uchun, jamiyat imtiyozli aksiyalari miqdori nominal qiymati 1 000 so'm bo'lgan 152 900 dona imtiyozli aksiyalarni tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligining 2026-yil 1-avgustdagi 02/9.2-17.1/443-sonli ko'rsatmasiga muvofiq, Jamiyat ustavining 63-bandiga muvofiq 152 900 dona imtiyozli aksiya egalari nominal qiymatiga nisbatan 25% miqdorida, ya'ni jami 38 225,0 ming so'm dividend to'lashga yo'naltirish taklifi berildi.

Kun tartibidagi beshinchi masala yuzasidan aksiyador qaror qiladi:

1. Jamiyat ustavining 63-bandiga muvofiq 152 900 dona imtiyozli aksiya egalari aksiyalar nominal qiymatiga nisbatan 25% miqdorida, ya'ni, jami 38 225,0 ming so'm dividend o'rnatilgan tartib va muddatlarda to'lashga yo'naltirilsin.

Kun tartibidagi oltinchi masala yuzasidan:

O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligining 2026-yil 1-avgustdagi 02/9.2-17.1/443-sonli ko'rsatmasiga muvofiq jamiyatning affillangan shaxslar ro'yhatini va ular bilan kelgusida (2026-2027-yillar davomida) tuzilishi mumkin bo'lgan bitimlarni ma'qullash masalasi yuzasidan, Qonunning 83, 87, 88 va 91- moddalariga asosan qo'shimcha o'rganish talab etilganligi sababli, yakuniy xulosa olinganga qadar ko'rmasdan qoldirish taklifi berildi.

Kun tartibidagi oltinchi masala yuzasidan aksiyador qaror qiladi:


1. Jamiyatning affillangan shaxslar ro'yhatini va ular bilan kelgusida (2026-2027-yillar davomida) tuzilishi mumkin bo'lgan bitimlarni ma'qullash masalasi yuzasidan, Qonunning 83, 87, 88 va 91- moddalariga asosan qo'shimcha o'rganish talab etilganligi sababli, yakuniy xulosa olinganga qadar ko'rmasdan qoldirilsin.

“Yangi Angren IES” AJning barcha

ovoz beruvchi aksiyalarining ishonchnoma

asosida boshqaruvchisi -yagona aksiyadori

“Issiqlik elektr stansiyalari” AJ boshqaruv raisi



B. Jurayev